| Economic incentives and barriers to sustainable transition in agribusiness: a comparative study of organic and conventional farming systems ..... | 1157 |
| <b>Mubina Toirova</b>                                                                                                                             |      |
| Цифровая трансформация банковской системы узбекистана: анализ внедрения fintech-решений в государственных банках .....                            | 1162 |
| <b>Абдурахимова Дилора Каримовна</b>                                                                                                              |      |
| Ta'lim muassasalaridagi ba'zi jihatlar .....                                                                                                      | 1167 |
| <b>A'zam Qutbiddin A'zam-zoda</b>                                                                                                                 |      |
| Klasterlar hisob siyosatida boshqaruv hisobining metodologik asoslari .....                                                                       | 1173 |
| <b>Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich</b>                                                                                                      |      |
| Egri soliqlarning mohiyati, genezisi va rivojlanish tendensiyalariga oid nazariy munozaralar xususida .....                                       | 1179 |
| <b>Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich</b>                                                                                                           |      |
| Ekologik mehmonhona faoliyatini rejalashtirish maqsadlari va vazifalari .....                                                                     | 1186 |
| <b>Abidova Dilfuza Igamberdievna</b>                                                                                                              |      |
| Investitsiya loyihalarining iqtisodiy va moliyaviy samaradorligini oshirish istiqbollari .....                                                    | 1200 |
| <b>Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich</b>                                                                               |      |
| O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarining tahlili .....                                                     | 1204 |
| <b>Aliyev Arslon Salom o'g'li</b>                                                                                                                 |      |
| O'zbekistonda turizm sohasining iqtisodiy ko'rsatkichlarini statistik tahlil qilish .....                                                         | 1213 |
| <b>Jumanova Zilola Tuychiyevna</b>                                                                                                                |      |
| Xorijiy davlatlarda boylik solig'i va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....                                                                    | 1219 |
| <b>Ruziyev G'anisher Usarovich</b>                                                                                                                |      |
| Yer fondi va undan samarali foydalanishning nazariy asoslari (Samarqand viloyati misolida) .....                                                  | 1225 |
| <b>Xoshimova Sevara Baxromovna</b>                                                                                                                |      |
| Iqtisodiy-ekologik tizimlarni boshqarishga ta'sir etuvchi omillarning ilmiy asoslari .....                                                        | 1229 |
| <b>Kuldoshev Asliddin Tursunovich</b>                                                                                                             |      |
| Влияние финтех-услуг на финансовую инклюзию в сельских регионах узбекистана .....                                                                 | 1236 |
| <b>Абдурахимова Дилора Каримовна</b>                                                                                                              |      |
| Surxondaryo viloyati sanoat sohasining asosiy ko'rsatkichlari tahlili .....                                                                       | 1240 |
| <b>Kuvanchiyeva Mehriniso Davlyatgeldi qizi</b>                                                                                                   |      |
| A critical evaluation of strategic management's role in promoting sustainable development in Uzbekistan .....                                     | 1245 |
| <b>Ismatova Mahliyo</b>                                                                                                                           |      |



|                                                                                                                                                               |      |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| O'zbekistonda turizm xizmatlari eksportini oshirishda zamonaviy infratuzilma va texnologiyalarning integratsiyasi.....                                        | 1251 |
| <b>Akmal Bakhromov</b>                                                                                                                                        |      |
| Trends and reforms of corporate governance in state-owned enterprises.....                                                                                    | 1257 |
| <b>F.Djalilov</b>                                                                                                                                             |      |
| Переоценка долгосрочных активов в нефтегазовой промышленности и определение финансового результата от переоценки.....                                         | 1269 |
| <b>Махкамова Саида Гайратова</b>                                                                                                                              |      |
| Oziq-ovqat mahsulotlari korxonalarini integratsiyalashuv jarayonlarini boshqarish samaradorligini oshirish.....                                               | 1275 |
| <b>Xojiev Ibroxim Ikramovich</b>                                                                                                                              |      |
| Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim shartlari.....                                                                           | 1280 |
| <b>Allanazarova B.K.</b>                                                                                                                                      |      |
| P2P lending and crowdfunding as alternative sources of financing for small business in Uzbekistan.....                                                        | 1286 |
| <b>Abdurakhimova Dilora Karimovna</b>                                                                                                                         |      |
| O'zbekistonda soliq nazoratining huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish yo'llari.....                                                              | 1290 |
| <b>Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Oymatova Gulnura Mirjamolovna</b>                                                                                            |      |
| Applications of hyperbolic geometry in physics and biology.....                                                                                               | 1295 |
| <b>Khaknazarova Khurshidabonu Kenjaevna, Otakulova Rukhshona Akram kizi</b>                                                                                   |      |
| O'zbekiston temir yo'llari tizimining transformatsiyasi: modernizatsiya, raqamlashtirish va qayta tuzilish yo'nalishlari.....                                 | 1301 |
| <b>Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich</b>                                                                                                                       |      |
| The role of tourist product diversification in sustainable tourism development.....                                                                           | 1305 |
| <b>Raxmonov Shuxrat Shavkatovich, Alimova Mashhura Toirxonovna</b>                                                                                            |      |
| Temiryo'l transporti turi tavsifi.....                                                                                                                        | 1310 |
| <b>Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi</b>                                                                                                                     |      |
| Namangan viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish istiqbollari: Hududiy raqobatbardoshlik va innovatsion yondashuvlar.....                             | 1314 |
| <b>Khusniddin Egamnazarov</b>                                                                                                                                 |      |
| Kiberxavfsizlik: it infratuzilmasini himoya qilishning zamonaviy usullari.....                                                                                | 1321 |
| <b>D. Sh. Usmanbayev</b>                                                                                                                                      |      |
| Mahalliy budjetlar daromad bazasini tahlili.....                                                                                                              | 1325 |
| <b>Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich</b>                                                                                                                        |      |
| Развитие цифровых финансовых услуги в банковской системе Республики Узбекистан.....                                                                           | 1333 |
| <b>Абдурахманова Матлуба Махамдаминовна</b>                                                                                                                   |      |
| Avariya rejimlarida kichik yuklamali elektr ta'minoti tizimlarining kabel izolyatsiyasi monitoringini avtomatlashtirishning zamonaviy yondashuvlari.....      | 1339 |
| <b>Mirzoyev Narzulla Nuriddinovich, Mamatqulov Toyir Chorshanbiyevich</b>                                                                                     |      |
| Analysis of increasing the speed of information exchange between the control interface and execution mechanisms in emergency mode in intelligent systems..... | 1346 |
| <b>Azizbek Yusupbekov Nodirbekovich, Husniddin Esonov Mamarasul o'g'lu Assistant</b>                                                                          |      |
| Sa'noat korxonalari va mexatron robotlarni optimal avtomatlashtirish va boshqarishda sun'iy intellektning ahamiyati.....                                      | 1351 |
| <b>Karabayev Ibragim Turdiyevich, Esonov Husniddin Mamarasul o'g'li, Abdullayeva Saodat Mengbayevna, Mamatqulov Toir Chorshanbiyevich</b>                     |      |
| Korxonaning moliyaviy holatini baholashda zamonaviy tahlil uslublarining qo'llanilishi.....                                                                   | 1355 |
| <b>Usmanova Nasiba Akbarjonovna, Suleymanova Asel Armanovna</b>                                                                                               |      |
| Xizmat ko'satish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarning ahamiyati.....                 | 1360 |
| <b>Mirzayeva Shirin Nodirovna</b>                                                                                                                             |      |
| Rekreatsiya turizmi va sog'lomlashtirish xizmatlari integratsiyasi.....                                                                                       | 1365 |
| <b>Shaymanova Nigora Yusupovna</b>                                                                                                                            |      |
| Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda ba'zi iqtisodiy yondashuvlarning nazariy jihatlar.....                                                  | 1369 |
| <b>Iskandarova D.B.</b>                                                                                                                                       |      |
| Yashil (eko) investitsiyalarni tijorat banklari orqali moliyalashtirish.....                                                                                  | 1373 |
| <b>Kamilova Iroda Xusniddinovna</b>                                                                                                                           |      |



|                                                                                                                                                               |      |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| Improvement of inventory accounting audit based on international standards .....                                                                              | 1378 |
| Ovlayev Suhrob Temur o'g'li, Yo'ldiyev Oybek Ulug'bek o'g'li,<br>Normo'minova Dilorom Umar qizi, Avlayeva Oybachin Olim qizi                                  |      |
| Artificial intelligence systems for assessing creditworthiness .....                                                                                          | 1382 |
| Mardonova Durdona Yaxshiboy qizi                                                                                                                              |      |
| B2B bozorini rivojlantirishda raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishni<br>takomillashtirish .....                                                   | 1387 |
| Samadov Askarjon Nishonovich                                                                                                                                  |      |
| Tech-driven growth and the economy of the future: brics-t in the society 5.0 paradigm .....                                                                   | 1395 |
| Kaldibayev Nurlan Alimjanovich, Sagdullayeva Gulnora Botirovna, Durmanov, Akmal Shaimardanovich                                                               |      |
| O'zbekistonda tabiiy resuslardan olinadigan rentaning yaimdagi ulushiga tanlab olingan<br>o'zgaruvchilar ta'siri tahlili .....                                | 1404 |
| Tursunov Husnidin, Ibragimov Hasan                                                                                                                            |      |
| O'zbekistonda fond bozorini tartibga solish .....                                                                                                             | 1412 |
| Sultonov Sheroli Nuraliyevich                                                                                                                                 |      |
| Public perception of the feasibility of introducing islamic banking in Uzbekistan:<br>a consumer perspective .....                                            | 1418 |
| Dr. Shamirova Surayyo Kabildjanovna                                                                                                                           |      |
| Directions for implementing the innovative digital technologies in tourism .....                                                                              | 1425 |
| Norchaev Asatullo Norbutaevich                                                                                                                                |      |
| Возможности совершенствования практики финансирования инвестиционных<br>проектов .....                                                                        | 1430 |
| Шомуродов Равшан Турсункулович, Хакимов Хафизбек Хамза угли                                                                                                   |      |
| O'zbekistonda pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatishning transport-logistika<br>jarayonini mintaqaviy darajada rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish ..... | 1436 |
| Palvanbayev Umidbek O'ktam o'g'li                                                                                                                             |      |
| Aksiyalar qiymatini baholashning nazariy asoslari .....                                                                                                       | 1440 |
| Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi                                                                                                                               |      |



# AKSIYALAR QIYMATINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI

**Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi**

Baholash ishi va investisiyalar kafedrası assistenti  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada aksiyalar qiymatini baholashning nazariy asoslari, mavjud yondashuvlari va ularni amaliyotda qo'llash holatlari tahlil qilingan. Ishda daromad, bozor va xarajat yondashuvlari orqali aksiyalar qiymatini aniqlash usullari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, baholash jarayonidagi mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston fond bozorida baholash tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** aksiya, baholash, daromad yondashuvi, bozor yondashuvi, xarajat yondashuvi, fond bozori, investor.

**Abstract:** This article explores the theoretical foundations of stock valuation, existing approaches, and their practical application. The paper examines methods for evaluating stock prices using income, market, and cost approaches. It also identifies current issues in the valuation process and proposes recommendations for their resolution. Based on the findings, the thesis outlines key directions for improving the valuation system within Uzbekistan's stock market.

**Key words:** stock, valuation, income approach, market approach, cost approach, stock market, investor.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены теоретические основы оценки стоимости акций, существующие подходы и их практическое применение. В работе проанализированы методы оценки акций с использованием доходного, рыночного и затратного подходов. Также выявлены основные проблемы в процессе оценки и предложены рекомендации по их устранению. На основе проведенного исследования обоснованы приоритетные направления совершенствования системы оценки на фондовом рынке Узбекистана.

**Ключевые слова:** акция, оценка, доходный подход, рыночный подход, затратный подход, фондовый рынок, инвестор.

## KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aksiyalar qiymatini baholash moliyaviy bozorlar ishtirokchilari – investorlar, kompaniya menejerlari, tahlilchilar va boshqalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Aksiyalarning real bozor qiymatini to'g'ri aniqlash investorlarning oqilona qarorlar qabul qilishida, kompaniyalar kapitalining samarali boshqarilishida va moliya bozorining barqaror ishlashida muhim o'rin tutadi.

Aksiya – bu aktsionerlik jamiyatining ustav fondiga qilingan ulushi evaziga beriladigan, egasiga dividend olish va kompaniya boshqaruvida qatnashish huquqini beruvchi qimmatli qog'ozdir. Ular mulk huquqini ifodalaydi va bozorda erkin muomalada bo'ladi. Aksiyalar bozori kapital bozorining asosiy qismini tashkil etadi [3]. Aksiyalar ikki turga bo'linadi:

Oddiy aksiya – egasiga dividend olish va ovoz berish huquqini beradi;

Imtiyozli aksiya – odatda, qat'iy foiz shaklida daromad olish imkonini beradi, biroq boshqaruvda ishtirok etmaydi.

Aksiyalar qiymatini baholash quyidagi holatlarda zarur bo'ladi:

Investitsiya qarorlarini qabul qilishda;

Kompaniyani qayta tashkil qilish, sotish yoki birlashtirishda;

Moliyaviy hisobotlar tuzishda;

Soliq va audit maqsadlarida;

Investorlar portfelini samaradorligini tahlil qilishda [1].

Shunday qilib, to'g'ri baholash orqali investorlar o'z mablag'larini eng foydali yo'nalishlarga yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Baholashda quyidagi asosiy prinsiplarga amal qilinadi:

Bozor qiymati prinsipi – aksiya bozorda qanchaga sotilishi mumkinligini aniqlaydi;

Daromadlar prinsipi – aksiya kelajakda qanday daromadlar keltirishi asosida baholanadi;

Tenglashtirish prinsipi – boshqa shunga o'xshash aksiyalar bilan solishtirish orqali aniqlanadi;

Likvidlik prinsipi – aksiya qanday tezlikda va qanday xarajat bilan naqdga aylantirilishi mumkinligini hisobga oladi [4].



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aksiyalar qiymatini baholash – moliyaviy tahlil, investitsiya qarorlarini qabul qilish va korxonaning bozor qiymatini aniqlash jarayonlarida muhim nazariy-amaliy yo'nalishlardan biridir. Bu boradagi nazariy qarashlar XX asr boshlarida shakllana boshlagan bo'lib, bugungi kunda ham dolzarb ilmiy izlanishlar obyekti hisoblanadi.

Aksiyalarni baholashning eng qadimiy va asosiy nazariy modeli bu – diskontlangan pul oqimlari modeli (Discounted Cash Flow – DCF) bo'lib, u ilk bor J.B. Williams tomonidan 1938 yilda ilgari surilgan. Unga ko'ra, aksiyaning haqiqiy qiymati uning kelajakdagi kutilayotgan pul oqimlarining hozirgi qiymatiga teng bo'ladi. Ushbu yondashuv investorlar tomonidan kompaniyaning ichki qiymatini aniqlashda keng qo'llaniladi.

Keyinchalik, ushbu sohaga ko'rsatkichlarga asoslangan baholash usullari kirib keldi. Ayniqsa, P/E (Price-to-Earnings), P/B (Price-to-Book) va P/S (Price-to-Sales) kabi nisbiy ko'rsatkichlar investorlar uchun oddiy va tezkor tahlil vositalariga aylandi. Bu usullar bozor sharoitlari tez-tez o'zgaradigan vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Aksiyalar bahosini baholashda portfel nazariyasining ham ahamiyati katta. 1952 yilda H. Markowitz tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy portfel nazariyasi investitsiyalarning tavakkal darajasini kamaytirish orqali optimal portfel yaratishni asoslab berdi. Ushbu yondashuvga ko'ra, aksiyaning qiymati nafaqat uning rentabelligiga, balki umumiy bozor bilan qanday bog'liq tavakkalga ega ekanligiga ham bog'liq bo'ladi.

Ushbu yo'nalishdagi nazariy yondashuvlardan biri bu – Kapital aktivlarni baholash modeli (CAPM – Capital Asset Pricing Model) bo'lib, u W. Sharpe tomonidan 1964 yilda ishlab chiqilgan. CAPM modeli aksiyaning kutilayotgan rentabelligi va bozor tavakkali (beta koeffitsienti) o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga olgan holda narxni belgilaydi. Ushbu model hozirgi kunda fond bozori tahlilining asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.


Mazkur mavzu bo'yicha O'zbekistonlik olimlarning tadqiqotlari ham e'tiborga loyiq. Jumladan, A. Qodirovning "Moliyaviy menejment" darsligida aksiyalarni baholashda foydalaniladigan uslublar, xususan DCF va ko'rsatkichlar asosidagi baholashlar atroflicha yoritilgan. Shuningdek, Q. Abdurahmonov "Investitsiyalarni boshqarish" asarida milliy korxonalar misolida kapital qiymatini baholash amaliyotiga alohida e'tibor qaratgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda aksiyalar qiymatini baholashga oid nazariy yondashuvlar, baholash modellari va ularning amaliy qo'llanilishi o'rganildi. Ishning asosiy maqsadi – aksiyalar bahosini aniqlashda qo'llaniladigan metodlarning nazariy asoslarini aniqlash, ularning afzallik va cheklovlarini baholash, hamda investitsiya qarorlarini qabul qilishda ularning ahamiyatini ochib berishdan iborat.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida aksiyalar qiymatini baholashda keng qo'llaniladigan asosiy nazariy yondashuvlar – diskontlangan pul oqimlari modeli (DCF), kapital aktivlarni baholash modeli (CAPM), hamda ko'rsatkichlarga asoslangan baholash usullari (P/E, P/B, P/S) o'rganildi va ular orasida taqqoslama tahlil amalga oshirildi.



1-jadval. Aksiyalar qiymatini aniqlash uchun bir necha yondashuvlar mavjud



## 2-jadval. Baholash usullarining afzallik va kamchiliklari

| Usul               | Afzalliklari                               | Kamchiliklari                                      |
|--------------------|--------------------------------------------|----------------------------------------------------|
| DDM                | Soddaligi, dividend siyosatiga asoslanishi | Faqat dividend to'laydigan kompaniyalarga tegishli |
| DCF                | Kompaniyaning haqiqiy qiymatini ko'rsatadi | Bashorat noto'g'riligiga bog'liq                   |
| Bozor yondashuvi   | Tez va oson qo'llaniladi                   | Bozordagi o'zgaruvchanlikka bog'liq                |
| Xarajat yondashuvi | Likvidatsiya holatida foydali              | Bozor real holatini aks ettirmaydi                 |

O'zbekiston fond bozorida aksiyalarni baholash jarayonida bir qator muammolar kuzatilmoqda. Jumladan: Moliyaviy axborotning ochiqdigi past darajada – kompaniyalar yillik moliyaviy hisobotlarini to'liq e'lon qilmasligi sababli tahlil qilish qiyinlashadi;

Investorlar savodxonligining pastligi – ko'pchilik investorlar baholash usullaridan bexabar, bu esa noto'g'ri investitsiya qarorlariga olib keladi [2];

Aksiyalar bozori likvid emas – ko'p aksiyalar bilan savdo faol olib borilmaydi;

Dividend siyosatining noaniqligi – ba'zi kompaniyalar muntazam dividend to'lamaydi yoki rejalarini ochiq aytmaydi;

Baholash usullarini noto'g'ri tanlash – ko'pincha kompaniya xususiyatlariga mos bo'lmagan yondashuvlar qo'llaniladi [5].

Sunday qilib, ushbu muammolar aksiyalarni real narxida baholashga to'sqinlik qiladi. Aksiyalar qiymatini ishonchli va samarali baholash uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Moliyaviy axborotni oshkora qilishni kuchaytirish:

- Kompaniyalar har chorakda moliyaviy hisobotlarni e'lon qilishlari shart qilib belgilanishi kerak;
- Auditorlik tekshiruvlarining mustaqil bo'lishi ta'minlanishi lozim.

2. Investitsiya savodxonligini oshirish:

- Fond bozorida ishtirok etuvchi investorlar uchun seminar va onlayn kurslar tashkil etish;
- Baholash usullari bo'yicha metodik qo'llanmalar ishlab chiqish.

3. Baholash usullarining kompleks qo'llanilishini targ'ib qilish:

- Aksiyalarni baholashda faqat bitta usul emas, balki bir nechta uslub (DCF, DDM, P/E, P/B) asosida baho berish;

- Kompaniya turlari (soha, o'lcham, dividend siyosati) bo'yicha tavsiya etiladigan baholash usullarini ishlab chiqish.

4. Raqamli baholash platformalarini rivojlantirish:

- Interaktiv onlayn platformalar yordamida kompaniyalar moliyaviy ma'lumotlari asosida avtomatik aksiya bahosini hisoblash imkoniyatlarini joriy qilish;

- Investorlar uchun mobil ilovalar orqali real vaqt rejimida baholash natijalarini ko'rsatish.

5. Qimmatli qog'ozlar bozorini chuqurlashtirish:

- Ko'proq kompaniyalarni IPO orqali ochiq bozorga chiqarish;

Aksiyalar bilan faol savdo qilishni rag'batlantirish.

Shunday qilib, aksiyalar qiymatini baholash moliyaviy bozorning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Maqola davomida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Aksiya bu – kompaniyaning mulk qismidir va uni baholash investorlar uchun muhimdir;

Aksiyalarni baholashda daromad yondashuvi, bozor yondashuvi va xarajat yondashuvi keng qo'llaniladi;

Har bir usulning o'ziga xos afzallik va cheklovlari mavjud, ularni kompaniyaning holatiga qarab tanlash kerak;

Amaliy misolda bir nechta baholash usullari orqali turlicha qiymatlar olindi, bu esa usullarning kombinatsiyasini qo'llash zarurligini ko'rsatadi;

O'zbekistonda aksiyalarni baholash tizimi hali rivojlanish bosqichida, uni takomillashtirish uchun tahliliy vositalarni, ochiqlikni va investor savodxonligini oshirish zarur.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, aksiyalar qiymatini baholash moliyaviy qarorlar qabul qilishda muhim vosita bo'lib, u investorlarning xatar darajasini baholashi, portfel shakllantirishi va kapitalni samarali taqsimlashi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Baholashning nazariy asoslari sifatida ko'rib chiqilgan DCF, CAPM



va multiplikatorlarga asoslangan usullar turli xususiyatlarga ega bo'lib, ularning har biri muayyan holatlar uchun afzallik va cheklovlarga ega.

Diskontlangan pul oqimlari modeli (DCF) kompaniyaning ichki qiymatini aniqlashda yuqori aniqlikka ega bo'lsa-da, ma'lumotlarni to'g'ri prognoz qilish zaruriyati uni murakkablashtiradi. Kapital aktivlarni baholash modeli (CAPM) aksiyalar tavakkalini hisobga olishda qulay bo'lib, bozor mexanizmlariga asoslanadi. Multiplikatorlar esa tezkor va solishtirma baholash uchun foydalidir, ammo ular aksiyaning haqiqiy ichki qiymatini har doim ham aks ettirmaydi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, baholash jarayonida modellarni kompleks holda qo'llash eng maqbul yondashuvdir. Turli baholash metodlarini birgalikda qo'llash natijasida investitsiya qarorlarining aniqligi oshadi va xatar darajasi pasayadi.

Mazkur maqolada aksiyalar qiymatini baholashning nazariy asoslari, amaliy usullari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari keng ko'lamda o'rganildi. O'zbekiston sharoitida aksiyalarni ishonchli baholash mexanizmini shakllantirish, moliyaviy bozorlarning samarali ishlashi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Aksiya – bu kompaniyaning egalik huquqini ifodalovchi moliyaviy vosita bo'lib, uni to'g'ri baholash investorlar uchun aniq qaror qabul qilishda muhim rol o'ynaydi.

2. Aksiyalarni baholashning uch asosiy yondashuvi mavjud: daromad yondashuvi (DCF, DDM), bozor yondashuvi (P/E, P/B ko'rsatkichlari), va xarajat yondashuvi (aktivlar asosida baholash). Har bir usulning o'ziga xos afzallik va cheklovlari mavjud.

3. Amaliy tahlil natijalariga ko'ra, baholash usullaridan bir nechtasini kompleks qo'llash orqali eng yaqin va real bahoni olish mumkinligi isbotlandi.

4. O'zbekistonda aksiyalarni baholashda moliyaviy ma'lumotlarning ochiqligi, investor savodxonligi va fond bozorining likvidligi bilan bog'liq muammolar mavjud.

5. Baholash tizimini takomillashtirish uchun raqamli texnologiyalar, investorlar uchun o'quv dasturlari, hamda baholash standartlarini ishlab chiqish zarurdir.

Ushbu xulosalar asosida aksiyalarni baholash tizimini mustahkamlash va fond bozorini rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surildi. Bu esa nafaqat investorlar faoliyatining samaradorligini oshiradi, balki butun kapital bozorining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Asqarov S., "Moliyaviy menejment", T.: Iqtisodiyot, 2021.
2. Damodaran A., "Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset", Wiley Finance, 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy nashrlari – [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)
4. O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi ma'lumotlari – [www.capmarket.uz](http://www.capmarket.uz)
5. Bloomberg Terminal, kompaniya moliyaviy hisobotlari (2023–2024).



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>